Aqmanova Shahnoza Alimboyevna (Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti “O‘bek tilshunosligi” kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)

O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTIDA FANLARARO INTEGRATSIYANING ROLI VA ISTIQBOLLARI

Har yili 21-oktabr kuni mamlakatimizda “O‘zbek tili bayrami kuni” sifatida keng nishonlanishi milliy o‘zlikni anglash va davlat tili maqomini mustahkamlashda muhim tarixiy hamda ma’naviy voqeadir. Bugungi kunda dunyo bo‘yicha 50 milliondan ortiq kishi o‘zbek tilida so‘zlashadi va u eng ko‘p qo‘llaniladigan top-20 ta til qatoridan o‘rin olgan. Biroq globallashuv va shiddatli raqamlashtirish asrida tilning yashovchanligi hamda xalqaro nufuzi faqat so‘zlashuvchilari soni bilan emas, uning ilm-fan, yuqori texnologiyalar hamda sun’iy intellekt tiliga aylanish darajasi bilan belgilanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6097- hamda PF-4797-farmonlari doirasida tasdiqlangan 2020–2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish konsepsiyasi davlat tilini raqamli muhitga integratsiya qilish bo‘yicha poydevor yaratdi. Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish jarayonida o‘zbek tilshunosligi an’anaviy tavsifiy tadqiqotlar bilan cheklanmasdan tutash fanlar bilan faol hamkorlik qilishni taqozo etmoqda. Tilshunos olim Sh.Safarov ta’kidlaganidek, “Fanlar, sohalar integratsiyasi zamon talabi. Hozirgi kunda “yakka otning changi chiqmas”ligi aniq bo‘lib qoldi. Tilshunoslik ham o‘z yondoshlari bilan juftlashmoqda...”.[1]Tilshunoslikning sotsiologiya, geografiya, psixologiya, kognitologiya, kompyuter ilmlari hamda sun’iy intellekt kabi sohalar bilan o‘zaro integratsiyasi amaliy va nazariy natijalar samaradorligini keskin oshirmoqda.

XXI asr tilshunosligining markaziy xususiyati bu sistem-struktur paradigma o‘rnini antropotsentrik va kognitiv paradigma egallashidir. An’anaviy tilshunoslik tilni inson faoliyatidan ajratilgan holda, faqat ichki belgilari bo‘yicha tadqiq etgan bo‘lsa, zamonaviy yo‘nalishlar lisoniy birliklarni inson tafakkuri, madaniyati, jamiyat va muloqot vositasi sifatida uzviy bog‘liqlikda o‘rganadi.

Aslida, tilning boshqa sohalar bilan bog‘liqligi bugun shakllanib qolmadi. Uning ildizlari bir necha asrlardan beri ulug‘ mutafakkirlar asarlarida qayd qilinib kelindi. Xususan, ijtimoiy fanlarning umumiy negizi bo‘lgan mantiq bilan til hodisalarining mutanosibligi doimiy ko‘ndalang masala hisoblanadi. Insoniyat tafakkuri va uning moddiy qobig‘i bo‘lgan til jamiyat taraqqiyotining eng muhim omilidir. Tilsiz fikrni, tafakkursiz esa tilni tasavvur etib bo‘lmaydi. Til va mantiq munosabatini ilmiy tahlil qilish antik davr falsafasidan to Sharq Renessansi davrigacha bo‘lgan davrda diqqat-e’tiborda bo‘lib kelgan. Sharqning ulug‘ mutafakkiri Abu Nasr Forobiy mantiq va grammatika fanlarining o‘zaro mutanosibligini quyidagicha ta’riflaydi: “Mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani singari mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo‘ldan olib borish uchun aqlni to‘g‘rilab turadi”.[2] Forobiyning ushbu qarashlari til va mantiqni inson fikrlashini tartibga soluvchi, uni xatolardan asrovchi va ilmiy bilishga yetaklovchi ikki mustaqil, ammo ajralmas soha sifatida belgilab berdi. Mutafakkir Alisher Navoiy ham o‘z asarlarida shakl va mazmun dialektikasini til va tafakkur munosabati orqali asoslab, til fikrni ifodalovchi hamda insonni komillikka yetaklovchi qudratli ma’naviy vosita ekanligini alohida ta’kidlagan.[3]

Til va mantiq munosabatida nozik bir muvozanat mavjudki, mantiqiy kategoriyalar hamda fikrlash tamoyillari barcha insoniyat uchun umumiy, mavhum va universal xarakterga ega bo‘lsa, ushbu kategoriyalarning tildagi grammatik va leksik ifodasi har bir xalqning milliy xarakteri hamda madaniy o‘zligini namoyon etadi. G‘arb tilshunoslik an’anasida Ferdinand de Sossyur fikr va tovush birligini qog‘oz varag‘iga qiyoslagan edi: “Tilni qog‘oz varag‘iga o‘xshatish mumkin. Fikr uning old tomoni, tovush esa orqa tomonidir. Qog‘ozning bir tomonini kesganda ikkinchi tomoni ham kesilganidek, tilni fikrdan, fikrni esa tildan

---

[1]Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Тошкент, «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» давлат илмий нашриёти, 2008, 15-бет.

[2] Абу Наср Форобий. Мантиқ санъатининг бир қисми: Аристотель мантиғига шарҳлар. Таржимон ва нашрга тайёрловчи: М. Динорасулова. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1994, 14-бет; Aqmanova Sh.A. Til va mantiq (o‘quv qo‘llanma). Urganch, “Khwarezm publication” nashriyoti, 2026, 5-бет.

[3] Алишер Навоий. Маҳбуб ул-қулуб. Мукаммал асарлар тўплами. 20 жилдлик. 14-жилд, Тошкент, «Фан» нашриёти, 1998, 12–15-бетлар.

ajratib bo‘lmaydi”[1]. Shuningdek, Vilgelm fon Gumboldt tilning ichki qarama-qarshiliklarini (antinomiyalarini) tadqiq etar ekan, eng birinchi va asosiy antinomiya sifatida aynan til bilan tafakkurning ajralmas birligi va ichki qarama-qarshiligini e’tirof etgan.[2] XVII–XIX asrlarda Port-Royal grammatikasi[3] hamda K.Bekker tadqiqotlarida ilgari surilgan g‘oyalar shuni ko‘rsatadiki, turli tillarning rang-barang tashqi qobiqlari ostida yashiringan umuminsoniy mantiqiy-tafakkuriy chizmalar mavjuddir.[4]

Tarixan shakllangan ushbu falsafiy-metodologik qarashlar hamda til va tafakkurning mantiqiy qonuniyatlari bugungi raqamlashtirish davrida amaliy-algoritmik ko‘rinish olmoqda. Zero, inson tafakkuri va tilining universal chizmalarini kompyuter modellariga ko‘chirish, lisoniy tuzilmalarni formal-mantiqiy algoritmlar shaklida ifodalash zamonaviy tilshunoslikning ustuvor vazifasiga aylandi.

Ayni shu nazariy va mantiqiy poydevorga tayanib, raqamli texnologiyalar asrida o‘zbek tilining ilmiy va texnologik mavqeyini ta’minlashda kompyuter lingvistikasi bo‘yicha bajarilayotgan tadqiqotlar hal qiluvchi rol o‘ynamoqda. Bugungi kunda zamonaviy o‘zbek tilshunosligida milliy matn korpuslari, elektron lug‘atlar, tezauruslar hamda lingvistik mobil ilovalarni yaratish ustida keng ko‘lamli amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Sohadagi tadqiqotlarda ta’kidlanganidek, elektron leksikografiya va terminologik ma’lumotlar bazalari atamalarni tizimlashtirish, ularni tezkor qidirish hamda ilmiy muomalaga kiritish orqali o‘zbek tilining ilm-fan tili sifatidagi salohiyatini oshirmoqda. Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan “O‘zbek tili raqamli dunyoda ilm va texnologiya yaratiladigan til bo‘lishi lozim”,[5] degan g‘oya filolog olimlar hamda butun ma’rifat ahli oldiga tamomila yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

Bugungi kunda filologiya va kompyuter fanlari kesishuvida shakllangan kompyuter lingvistikasi hamda tabiiy tilni qayta ishlash o‘zbek tilining raqamli kelajagini ta’minlovchi muhim sohaga aylandi. Neyron tarmoqlar, katta til modellari hamda avtomatik tarjima tizimlarini yaratish uchun o‘zbek tilining matematik va formal-morfologik modellarini ishlab chiqish zarurati yuzaga keldi. O‘zbek tili agglyutinativ tabiatga ega bo‘lgani sababli, so‘z o‘zaklaridan tartibli ravishda ko‘plab affikslarning qo‘shilishi avtomatik tahlilni murakkablashtiradi. Shu munosabat bilan, so‘z turkumlarini avtomatik teglash dasturlari yaratilib, 12 ta asosiy grammatik turkum va 80 000 dan ortiq leksik bazaga tayanuvchi algoritmlar asosida 90 foizgacha aniqlikka erishildi.[6] Shuningdek, BERTbek, UzRoBERTa hamda BBPOS kabi transformer arxitektu-rasiga asoslangan zamonaviy modellar o‘zbekcha matnlarning semantik va sintaktik tahlilini yangi bos-qichga olib chiqdi.[7] Sun’iy intellekt vositasida o‘zbek tilining Surxondaryo va Qashqadaryo shevalariga oid dialektal birliklarini raqamlashtirish, me’yorlashtirish va ularga adabiy tildan semantik ekvivalent tan-lash imkonini beruvchi AI-izohli lug‘at arxitekturalari va CRUD-bazalari loyihalashtirildi.[8] Matnlarni av-tomatik tahrir qilish dasturlari uchun grafematik, morfologik va sintaktik bazalar, jumladan, 1 638 ta omonim va paronimik birliklar hamda tezaurus-ontologiyalar ishlab chiqildi[9].

Zamonaviy filologik tadqiqotlarda statistik va empirik metodlarga asoslangan korpus lingvistikasi va Raqamli gumanitar fanlar yetakchi o‘ringa chiqmoqda. Katta hajmdagi elektron matnlar majmuyi til hodisalarining jonli qo‘llanish chastotasini, me’yorni xolisona o‘lchash imkonini beradi. O‘zbek tilida milliy korpus, mualliflik korpusi hamda parallel korpuslarni yaratish bo‘yicha nazariy va amaliy ishlar jadal olib borilmoqda. Yaratilayotgan korpuslar va unga tutash lingvistik platformalar ilmiy tahlil uchun, shuningdek,

---

[1] Нурмонов А. Умумий тилшунослик курси. Тошкент, «Ўқитувчи» нашриёти, 1998, 97-бет.

[2] Нурмонов А. Тилшунослик назарияси (Дарслик). Тошкент, А.Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси» нашриёти, 2010, 35–41-бетлар.

[3] Арно А., Лансло К. Грамматика общая и рациональная Пор-Рояля. Пер. с фр. Н.Ю. Бокадоровой. Москва, “Прогресс”, 1990, с. 112–125.

[4] Нурмонов А. Лисоний илмлар тарихи. Тошкент, Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002, 60–65-бетлар.

[5] Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o‘ttiz besh yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqidan https://president.uz/oz/lists/view/9544

[6] Sharipov M., Kuriyozov E., Yuldashev O., Sobirov O‘. UzbekTagger: The rule-based POS tagger for Uzbek language // arXiv preprint arXiv:2210.16011, 2022, p. 1–8.

[7] Mansurov B., Mansurov A. UzBERT: Pretraining a BERT Model for Uzbek // arxiv preprint arXiv:2108.09814, 2021.

[8] Abidova Sh.B., Samadov D.U., Raximova M.D. O‘zbek tili dialektlari uchun sun’iy intellekt asosidagi izohli lug‘atni yaratish. «Экономика и социум» jurnali. 2026.

[9] Abjalova M.A. O‘zbek tilidagi matnlarni avtomatik tahrir va tahlil qilish dasturining lingvistik protsessorlari. «Kompyuter lingvistikasi: muammolar, yechim, istiqbollar» Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. Toshkent, TDO‘TAU, 2022, 212–219-бетлар; Abjalova M.A. Tahrir va tahlil dasturlarining lingvistik modullari. Monografiya. Toshkent, “Nodirabegim”, 2020, 176-bet.

o‘zbek tilini o‘qitish metodikasida, darsliklar va mashqlar majmuasini real matnlar asosida shakllantirishda ham yuksak samaradorlik ko‘rsatmoqda.

Jahon tilshunosligida atoqli otlarning ijtimoiy-madaniy muhitda shakllanishi, qo‘llanilish dinamikasi hamda jamiyat a’zolari tomonidan kognitiv anglanishini tadqiq etuvchi sotsioonomastika sohasi ustuvor yo‘nalishga aylanmoqda. Xalqaro nomshunos olimlar T.Ainiala hamda J.Ostman ta’kidlaganidek, nomlash jarayonlari faqat lisoniy hodisa bo‘lmay, vaqt va makon doirasidagi ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarni o‘zida aks ettiradi.[1]

Respublikamizda geografik va ijtimoiy obyektlar nomlarini milliy qadriyatlar hamda adabiy til me’yorlariga moslashtirish davlat til siyosatining eng muhim va mas’uliyatli yo‘nalishlaridan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganlaridek: “Jamiyatimizda til bilan bog‘liq eng ko‘p muhokama qilinayotgan, haqli e’tirozlarga sabab bo‘layotgan mavzu – bu joy nomlarini belgilash masalasi, desak, xato bo‘lmaydi. ...ijtimoiy obyektlarga nom berish – bu shunchaki shaxsiy yoki xususiy ish emas. Bu barchamizning vatanparvarlik va ma’naviy saviyamizni yaqqol ko‘rsatadigan o‘ziga xos mezondir. Buni hech kim hech qachon unutmasligi kerak”.[2]

Ushbu muhim vazifalar ijrosini ta’minlash hamda mediamakon va ko‘cha peshlavhalarida uchraydigan lisoniy me’yorsizlik, savodsizlik va sun’iy kalkalarni bartaraf etish borasida qator amaliy-texnologik loyihalar hayotga tatbiq etilmoqda. Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazi tomonidan “atamacom.uz” platformasi hamda uning mobil ilovasi yaratildi. Bu resurs chet tillardan shiddat bilan kirib kelayotgan sohaviy atamalarga milliy muqobillar taqdim etish va lisoniy variantdorlikni tartibga solishga xizmat qilmoqda. Markaz tomonidan ishlab chiqilgan “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasi” tadbirkorlik va xizmat ko‘rsatish subyektlariga milliylik va ma’naviy-uslubiy mezonlarga mos nomlar tanlashda avtomatik ko‘mak beradi. Joy nomlarining rasmiy va norasmiy ko‘rinishlarini xatlovdan o‘tkazish, ularning elektron ma’lumotlar bazalarini shakllantirish va raqamli xaritalarga integratsiya qilish bo‘yicha sotsiolingvistik so‘rovnomalar hamda korpus tadqiqotlari olib borilmoqda. Ushbu kompleks chora-tadbirlar o‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzini yuksaltirishga, toponimik savodxonlikni oshirishga hamda raqamli dunyoda milliylik va ilm-fan integratsiyasini ta’minlashga xizmat qiladi.

Bugungi raqamli axborot makonida tilshunoslik va huquqshunoslik integratsiyasi natijasida sud-lingvistik ekspertizasi va lingvokriminalistika sohasi alohida amaliy zaruratga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda rasmiy yozishmalarda uchraydigan bahsli matnlar, tuhmat, haqorat, axborot xavfsizligi yoki mualliflik huquqiga taalluqli muammolarni xolisona baholash uchun filologik-ekspertiza usullari qo‘llanilmoqda. Bu jarayonda semantik tahlil, germenevtik va freym-semantik metodlar hamda diskursiv tahlil yordamida nutqiy birlikning yashirin illokutiv maqsadi va huquqiy-ma’naviy mazmuni ilmiy asosda aniqlanadi.

Yuristlingvistika nomi bilan faol qo‘llanayotgan ushbu yo‘nalish o‘zbek tilining amaliy imkoniyatlarini kengaytirish va uning jamiyatdagi huquqiy-ijtimoiy nufuzini yuksaltirishda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Xususan, ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda rasmiy yozishmalarda uchraydigan nizoli matnlarning ilmiy-huquqiy maqomini belgilash sohaning markaziy vazifasidir. Tuhmat, haqorat, obro‘sizlantirish, xotirjamlikni buzish yoki axborot xavfsizligiga tahdid soluvchi nutqiy harakatlarning semantik, pragmatik va sotsiolingvistik xususiyatlarini xolisona baholash aynan sud-lingvistik ekspertizasi yordamida amalga oshiriladi. Yana bir muhim vazifasi, anonim (muallifi noma’lum) va psevdonim (soxta mualliflı) matnlarni tahlil qilish kriminalistika hamda sud amaliyotida katta ahamiyatga ega. Kompyuter-korpus dasturlari va lingvostilistik tahlil metodlari yordamida bahsli matnlardagi so‘z qo‘llash chastotasi va sintaktik qurilishlar o‘rganilib, mualliflik o‘rnatiladi hamda plagiat va firibgarlik holatlariga aniqlik kiritiladi. B.Mengliyev hamda D.Turayeva kabi tadqiqotchilar tomonidan o‘zbek tilidagi anonim yozishmalarni lingvistik ekspertiza qilish usullari alohida ilmiy yo‘nalish sifatida tadqiq etilgan.[3] Ekspertiza amaliyotida og‘zaki nutq signallarini tahlil qilish orqali yozib olingan dialoglardagi so‘zma-so‘z mazmun

---

[1] Ainiala T., Östman J.-O. Socio-onomastics: The Pragmatics of Names. – Amsterdam / Philadelphia: John Benjamins Publishing Company, 2017, p. 1–25.

[2] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2019-yil 22-oktabr.

[3] Mengliev B.R., Turaeva D.A. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. 2021, vol. 1, Issue 1.2, p. 101–105.

tiklanadi hamda muloqot ishtirokchilarining shaxsiyati aniqlanadi. Bu tezkor-qidiruv va sud jarayonlarida nutqiy dalillarni xolisona baholash imkonini beradi. Shungdek, lingvistik ekspertiza faqat sud bilan cheklanib qolmay, darsliklar va o‘quv qo‘llanmalarining ilmiy-metodik saviyasini, ularda ishlatilgan atama hamda qoidalarning adabiy til me’yorlariga mosligini baholashda ham faol qo‘llaniladi.

O‘zbek tilida ushbu sohaning shakllanishi va rivojlanishida N.Mahmudov, A.Saidov, Sh.Ko‘chimov, B.Mengliyev, Sh.Iskandarova, S.Hasanov, Q.Mo‘ydinov, K.Qayumova, K.Musurmonova hamda A. Murtazoyev kabi olimlarning tadqiqotlari muhim poydevor bo‘ldi[1]. Bugungi kunda oliy ta’lim dargohlarida (jumladan, Urganch davlat universitetida va boshqa ilmiy markazlarda) sud-lingvistik ekspertiza bo‘yicha amaliy va raqamli xizmatlarning yo‘lga qo‘yilishi o‘zbek tilshunosligini nazariy fan bo‘lish bilan birga jamiyatdagi huquqiy va ma’naviy ehtiyojlarga xizmat qiluvchi amaliy sohaga aylantirmoqda.

Ta’kidlash joizki, ko‘rib chiqilgan yo‘nalishlar va natijalar sohada olib borilayotgan keng ko‘lamli izlanishlarning muayyan bir qismini aks ettiradi, xolos. Garchi so‘nggi yillarda o‘zbek tilining raqamli hamda fanlararo integratsiyasini ta’minlash bo‘yicha dastlabki muhim amaliy yutuqlarga erishilgan bo‘lsa-da, tilimizning global texnologik makondagi to‘laqonli va mustahkam mavqeyini ta’minlash borasida oldimizda hali bajarilishi lozim bo‘lgan juda ko‘p vazifalar turibdi. Kelgusida ushbu sohalardagi tadqiqotlarni yanada jadallashtirish va raqamli lingvistik bazalarni mutassil boyitib borish davlat tili taraqqiyotining ustuvor sharti bo‘lib qoladi.

Umuman olganda, fanlararo bog‘liqlik va raqamli infratuzilmani izchil rivojlantirish o‘zbek tilining kundalik muloqot vositasi sifatidagina emas, ilm-fan va ilg‘or texnologiyalar yaratiladigan qudratli til sifatidagi barqaror mavqeyini ta’minlashning bosh kafolatidir. Zero, globallashuv hamda sun’iy intellekt jadal kirib kelayotgan hozirgi davrda har qanday milliy tilning yashab qolishi va rivojlanishi uni faqat saqlab qolish bilan emas, dunyoning rivojlangan tillari qatoridan muhim o‘rin egallashi, xalqaro maydondagi nufuzini oshirish hamda chuqur integratsiyalashganligi bilan belgilanadi.

[1] Saidov A., Sarkisyants G. Yuridik til va huquqshunos nutqi. – Toshkent: Adolat, 1994; Saidov A., Saidova L., Ko‘chimov Sh., Qosimova M. Qonun va til. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquq dunyosi, 1997. – 168 b.; Ko‘chimov Sh.N. Yuridik til nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. – Toshkent, 2013. – 98 b.; Ko‘chimov Sh.N. O‘zbekiston Respublikasi qonunlarining tili (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Jinoyat кодекси, Jinoyat-protsessual кодекси asosida): Filol. fan. nomz. ... diss. – Toshkent, 1995. – 209 b.; Mengliev B.R., Turaeva D.A. Methods of linguistic examination by anonymous letters in the uzbek language // Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 2021.; Mirhamidov M., Hasanov S. Yuridik til va huquqshunos nutqi. – Toshkent: Universitet, 2004. – 146 b.; Musulmonova K. O‘zbek yozma matnlarida lingvistik ekspertiza o‘tkazish maqsadi va asoslari // Wissenschaftliche Ergebnisse und errungenschaften. – 2020. – B.97.